



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 43-52 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI KICHIK BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI



Qodirov Azizjon Anvarovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori

Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi

“Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM,

Hududlar bilan ishlash va IT-shaharchalar

faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi

bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kichik biznes samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda elektron tijorat, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili kabi vositalarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. O'zbekiston va xalqaro tajriba misolida 2021–2025-yillarda raqamlashtirish jarayonlarining asosiy tendensiyalari tahlil qilindi. Natijalar raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich va strategik asosda joriy etgan korxonalarda operatsion xarajatlar qisqarishi, mijozlar bazasi kengayishi, savdo hajmi oshishi va boshqaruv qarorlarining sifati yaxshilanishini ko'rsatdi. Maqolada kichik biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Аннотация. В статье исследованы направления повышения эффективности малого бизнеса посредством внедрения цифровых технологий в предпринимательскую деятельность. Рассмотрено влияние электронной коммерции, автоматизации бизнес-процессов, цифрового маркетинга, облачных технологий и анализа данных на развитие субъектов малого бизнеса. На основе опыта Узбекистана и международной практики проанализированы тенденции цифровизации за 2021–2025 годы. Результаты показывают, что последовательное внедрение цифровых решений способствует снижению операционных расходов, расширению клиентской базы, росту объема продаж и повышению качества управленческих решений. Разработаны практические рекомендации по ускорению цифровой трансформации малого бизнеса, развитию цифровых навыков, укреплению кибербезопасности и совершенствованию механизмов государственной поддержки.

Abstract. This article examines the directions for improving small business efficiency through the introduction of digital technologies in entrepreneurial activity. The study analyzes the role of e-commerce, business process automation, digital marketing, cloud technologies and data

analytics in the development of small business entities. Based on the experience of Uzbekistan and international practice, the main digitalization trends for 2021–2025 are reviewed. The findings indicate that enterprises implementing digital technologies strategically and step by step can reduce operational costs, expand their customer base, increase sales volumes and improve the quality of managerial decision-making. The article offers practical recommendations for accelerating digital transformation in small businesses, improving digital literacy, strengthening cybersecurity and enhancing public support mechanisms.

Kalit soʻzlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, elektron tijorat, raqamli marketing, avtomatlashtirish, iqtisodiy samaradorlik.*

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, цифровые технологии, цифровизация, электронная коммерция, цифровой маркетинг, автоматизация, экономическая эффективность.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, digital technologies, digitalization, e-commerce, digital marketing, automation, economic efficiency.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi korxonalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish mexanizmlarini tubdan oʻzgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mijozlar bilan oʻzaro aloqani tezlashtirish va yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli raqamlashtirish bugungi kunda iqtisodiy oʻsishning muhim drayverlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi bandligini taʼminlash, raqobat muhitini shakllantirish hamda yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekistonda ham kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib, soʻnggi yillarda ushbu sohani qoʻllab-quvvatlash boʻyicha institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi. Natijada elektron tijorat, elektron toʻlov tizimlari, bulutli xizmatlar, sunʼiy intellekt elementlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish koʻlami bosqichma-bosqich kengaymoqda.

Shunga qaramasdan, koʻplab kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hali ham yetarli emas. Korxonalar moliyaviy resurslarning cheklanganligi, raqamli koʻnikmalarning yetishmasligi, axborot xavfsizligi bilan bogʻliq xavflar, malakali mutaxassislar tanqisligi hamda raqamli yechimlarning iqtisodiy samarasini oldindan baholashdagi murakkabliklarga duch kelmoqda. Bu omillar ularning raqobatbardoshligi, bozor ulushi va barqaror rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, elektron tijorat, raqamli marketing, CRM va ERP tizimlari, bulutli texnologiyalar hamda maʼlumotlar tahlili vositalaridan samarali

foydalanayotgan korxonalar an'anaviy boshqaruv usullariga tayanadigan korxonalarga nisbatan yuqori iqtisodiy natijalarga erishmoqda. Raqamli transformatsiya savdo hajmining ortishi, xarajatlarning qisqarishi, mijozlar bazasining kengayishi hamda boshqaruv qarorlarining tezkor va asosli qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini kompleks baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorlikka ta'sirini baholash va uni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kichik biznesni raqamlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish;
- tadbirkorlik faoliyatida qo'llanilayotgan asosiy raqamli texnologiyalarni tasniflash;
- 2021–2025-yillarda raqamlashtirish ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish;
- raqamli texnologiyalarning korxonalar samaradorligiga ta'sirini baholash;
- kichik biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya va uning biznes samaradorligiga ta'siri iqtisodiyot va boshqaruv sohalaridagi eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar korxonaning ishlab chiqarish, sotish, moliyaviy nazorat, mijozlar bilan ishlash va strategik boshqaruv jarayonlarini qayta tashkil etuvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari K. Schwab tomonidan yoritilgan bo'lib, muallif To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, Big Data, IoT va platforma iqtisodiyoti iqtisodiy hamda ijtimoiy tizimlar transformatsiyasining asosiy drayverlariga aylanishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv kichik biznes uchun ham muhim, chunki texnologik moslashuvchanlik ularga yirik korxonalar bilan raqobatda nisbiy ustunlik beradi.

Westerman, Bonnet va McAfee raqamli transformatsiyani korxonalar faoliyatini tubdan yangilashga xizmat qiluvchi strategik jarayon sifatida tavsiflaydi. Ularning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilgan korxonalar moliyaviy natijalar va operatsion samaradorlik bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishishi ko'rsatilgan. Mazkur yondashuv raqamlashtirishni faqat texnik yangilanish emas, balki korporativ strategiya elementi sifatida ko'rishni talab qiladi.

Rogers raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi texnologiyani joriy etishning o'zi emas, balki mijozlar uchun yangi qiymat yaratish ekanligini ta'kidlaydi. Muallif biznes modelini raqamli muhit talablariga moslashtirish korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes uchun raqamli marketing, elektron savdo kanallari va mijozlar bilan qayta aloqa tizimlari alohida ahamiyatga ega.

Bharadwaj, El Sawy, Pavlou va Venkatraman tomonidan ishlab chiqilgan "Digital Business Strategy" konsepsiyasida raqamli texnologiyalar korxonalarining strategik boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, raqamli

texnologiyalar nafaqat operatsion jarayonlarni takomillashtiradi, balki yangi biznes modellarini shakllantirish, raqamli ekotizimlarga ulanish va qiymat zanjirini qayta tashkil etish imkonini beradi.

Vial raqamli transformatsiyani tashkilotning faoliyat usullari, mahsulotlari va xizmatlarida texnologiyalar asosida yuz beradigan chuqur o'zgarishlar sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotida raqamlashtirish korxonalar moslashuvchanligini oshirishi, innovatsion rivojlanishni jadallashtirishi va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez javob berish imkoniyatini kuchaytirishi ko'rsatib berilgan.

Eller, Alford, Kallmünzer va Peters tomonidan kichik va o'rta biznes subyektlari raqamlashtirilishining omillari, natijalari hamda muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish mahsuldorlik, bozor imkoniyatlari va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalar yetishmasligi, moliyaviy cheklovlar va texnologik infratuzilmaning sustligi kichik biznes uchun asosiy to'siqlar sifatida qayd etiladi.

Verhoef va hammualliflar raqamli transformatsiyani ko'p bosqichli jarayon sifatida ko'rib, unda raqamli aktivlar, raqamli tashkiliy qobiliyatlar va platforma asosidagi biznes modellari muhim o'rin tutishini asoslaydi. Bu fikr kichik biznes uchun raqamli yechimlarni tartibsiz joriy etish emas, balki aniq strategiya, resurslar va natija indikatorlari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi.

OECD hisobotlarida kichik va o'rta biznesni raqamlashtirish iqtisodiy barqarorlik, eksport salohiyati va mehnat unumdorligini oshirishning muhim omili sifatida talqin qilinadi. OECD yondashuviga ko'ra, davlat siyosati raqamli infratuzilma, raqamli ko'nikmalar, moliyalashtirish va kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi zarur.

UNCTAD tomonidan raqamli iqtisodiyot va transchegaraviy ma'lumotlar oqimlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar elektron tijorat va raqamli platformalarning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratishini ko'rsatadi. Biroq, raqamli tafovut, infratuzilma nomutanosibliigi va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari bunday imkoniyatlardan to'liq foydalanishni cheklashi mumkin.

O'zbekiston olimlari Abduvaliyev, Karimov, Mirzayev, Sodiqov va Tursunov tadqiqotlarida kichik biznesni raqamlashtirishning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, elektron tijorat, raqamli marketing, axborot texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar mahalliy sharoitda raqamli transformatsiyani amalga oshirishda normativ-huquqiy muhit, tadbirkorlarning raqamli savodxonligi va infratuzilmaviy imkoniyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'siri keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida kichik biznes samaradorligiga ta'sir etuvchi aniq raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiy natijalari yetarli darajada kompleks baholanmagan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorlikka ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan baholashni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, guruhlash va umumlashtirish usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Jahon banki, OECD, UNCTAD, Deloitte va McKinsey kabi xalqaro tashkilotlarning 2021–2025-yillarga oid ochiq hisobotlari hamda ilmiy manbalardan foydalanildi. Shuningdek, kichik biznes faoliyatida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar bo'yicha ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tanlandi. Tadqiqot predmetini esa tadbirkorlik faoliyatida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar hamda ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri tashkil etdi.

Tahlilda raqamli transformatsiya natijalarini baholash uchun normallashtirilgan indeks usuli qo'llanildi. Bunda raqamli texnologiyalarni joriy etishdan oldingi holat 100 indeks birligi sifatida qabul qilindi va joriy etishdan keyingi o'zgarishlar nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalandi. Ushbu yondashuv turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan samaradorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy usullardan foydalanildi:

- tizimli tahlil usuli – kichik biznesda raqamli transformatsiya jarayonlarini kompleks o'rganish uchun;
- qiyosiy tahlil usuli – raqamli texnologiyalarni joriy etgan va etmagan korxonalar faoliyatini taqqoslash uchun;
- statistik tahlil usuli – raqamlashtirish ko'rsatkichlarining dinamikasini aniqlash uchun;
- guruhlash usuli – raqamli texnologiyalarni funksional yo'nalishlar bo'yicha tasniflash uchun;
- grafik va jadval tahlili usuli – natijalarni vizual ko'rinishda aks ettirish uchun.

Kichik biznes samaradorligini baholash uchun savdo hajmi, operatsion xarajatlar, mijozlar soni, mehnat unumdorligi, jarayonlarni bajarish tezligi va mijozlar sodiqligi darajasi kabi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Raqamli transformatsiya darajasini baholashda esa elektron tijorat, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi.

1-jadval

Kichik biznesda qo'llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar

Yo'nalish	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Kutilayotgan natija
Elektron tijorat	Online-do'konlar, marketplace platformalari	Savdo hajmining oshishi
Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish	CRM, ERP, elektron hujjat aylanishi	Mehnat unumdorligining oshishi
Raqamli marketing	SEO, SMM, target reklama	Mijozlar oqimining

		ko'payishi
Bulutli texnologiyalar	SaaS, Cloud Storage	Xarajatlarning kamayishi
Data Analytics	BI tizimlari, Big Data	Qaror qabul qilish sifatining oshishi

Manba: mualliflar tomonidan OECD (2021; 2022), Deloitte (2022), McKinsey & Company (2020), Verhoef va boshqalar (2021) hamda Vial (2019) tadqiqotlari asosida tizimlashtirildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tahlillar elektron tijorat, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili vositalari samaradorlikni oshirishning asosiy omillari ekanligini ko'rsatdi.

Birinchi bosqichda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi o'rganildi. 2021–2025-yillar davomida kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami oshgani kuzatildi. Ushbu holat mamlakatda olib borilayotgan raqamlashtirish siyosati, elektron davlat xizmatlari va to'lov infratuzilmasining rivojlanishi, marketplace platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo qilish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi quyidagi jadvalda normallashtirilgan indeks ko'rinishida aks ettirildi. Joriy etishdan oldingi holat 100 indeks birligi sifatida qabul qilindi.

2-jadval

Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi

Ko'rsatkich	Joriy oldin	etishdan	Joriy keyin	etilgandan	O'zgarish (%)
Operatsion xarajatlar	100		79		-21
Mijozlar bazasi	100		154		+54
Savdo hajmi	100		171		+71
Jarayonlar tezligi	100		176		+76
Mijozlar sodiqligi	100		141		+41

Manba: mualliflar hisob-kitoblari. Hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024), Raqamli texnologiyalar vazirligi (2023), OECD (2022) va Jahon banki (2023) ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan. Ko'rsatkichlar indeks usulida ifodalangan.

Jadval ma'lumotlari raqamli texnologiyalarni qo'llagan korxonalarda savdo hajmi, mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish tezligi sezilarli darajada oshishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlarning qisqarishi raqamli hujjat aylanishi, bulutli servislari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob va onlayn muloqot kanallaridan foydalanish bilan izohlanadi.

Tahlil davomida raqamli texnologiyalar samaradorlikka ta'siri bo'yicha alohida baholandi. Bunda har bir yo'nalishning savdo hajmi, mijozlar oqimi, jarayonlar tezligi va xarajatlar dinamikasiga nisbiy ta'siri umumlashtirildi.

3-jadval

Raqamli texnologiyalar yo'nalishlari bo'yicha samaradorlikka ta'sir darajasi

Yo'nalish	Samaradorlikka ta'siri (%)
Elektron tijorat	35
Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish	28
Raqamli marketing	43
Bulutli texnologiyalar	24
Data Analytics	31

Manba: mualliflar tomonidan OECD (2021; 2022), Deloitte (2022), McKinsey & Company (2020), Eller va boshqalar (2020), Verhoef va boshqalar (2021) manbalarini umumlashtirish asosida hisoblandi.

Natijalarga ko'ra, eng yuqori ta'sir raqamli marketing va elektron tijorat yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Bu holat iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar sonining ortishi, reklama xarajatlarning aniq segmentlarga yo'naltirilishi, onlayn savdo kanallari orqali hududiy chegaralarning qisqarishi va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq.

Korxonalarining raqamlashtirish darajasi va daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik ham kuzatildi. Raqamlashtirish darajasi oshishi bilan korxonalar daromadlari ham mutanosib ravishda ortib borishi raqamli texnologiyalar korxonalarining moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Biroq bunday natijaga erishish uchun texnologiyani tanlash, xodimlarni o'qitish, kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish va biznes jarayonlarini qayta loyihalash talab etiladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalar bilan mos keladi. Xususan, Westerman, Bonnet va McAfee tomonidan ilgari surilgan raqamli transformatsiya konsepsiyasida ta'kidlanganidek, raqamli texnologiyalar korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish va strategik ustunlik yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Rogers tomonidan ilgari surilgan biznes model transformatsiyasi yondashuvi ham tadqiqot natijalari bilan uyg'un bo'lib, raqamli texnologiyalar faqat texnik vosita emas, balki yangi qiymat yaratish mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari kichik biznesda aynan raqamli marketing va elektron tijorat eng yuqori samaradorlik berishini ko'rsatdi, bu esa OECD hisobotlarida qayd etilgan tendensiyalar bilan mos keladi.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayoni bir qator muammolar bilan ham bog'liq. Eng asosiy to'siqlar sifatida raqamli kompetensiyalarning yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kiberxavfsizlik xavflari, biznes jarayonlarini tahlil qilish ko'nikmalarining sustligi va malakali IT mutaxassislar tanqisligi aniqlanadi. Bu holat Vial

hamda Eller va hammualliflar tomonidan ham qayd etilgan bo'lib, raqamli transformatsiya murakkab va bosqichma-bosqich jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalar bozordagi o'zgarishlarga tezroq moslashadi va inqiroz davrlarida barqarorligini saqlab qoladi. COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli kanallardan foydalangan kichik biznes subyektlari an'anaviy biznes modellariga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lgani xalqaro hisobotlarda ham qayd etilgan.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni noto'g'ri joriy etish yoki aniq strategiyasiz amalga oshirish qo'shimcha xarajatlar va iqtisodiy samarasizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, korxonada ehtiyojlariga mos kelmaydigan ERP yoki CRM tizimini tanlash, xodimlarni yetarli o'qitmasdan platforma joriy qilish, ma'lumotlar xavfsizligini e'tiborsiz qoldirish kutilgan natijalarni pasaytiradi. Shu sababli raqamli transformatsiya texnologik xarid sifatida emas, balki tashkiliy-iqtisodiy islohot sifatida rejalashtirilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida kichik biznesni raqamlashtirishni jadallashtirish uchun davlat, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim. Raqamli savodxonlik kurslari, soliq va hisobot jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha maslahat xizmatlari, arzon bulutli yechimlar, kiberxavfsizlik bo'yicha amaliy treninglar hamda elektron tijorat infratuzilmasiga ulanish imkoniyatlari kichik biznesning raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqladi. Elektron tijorat, raqamli marketing, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, bulutli texnologiyalar va data analytics kabi yo'nalishlar korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- raqamli texnologiyalar kichik biznesda xarajatlarni kamaytiradi, daromadni oshiradi va boshqaruv jarayonlarining shaffofligini kuchaytiradi;
- eng yuqori samaradorlik raqamli marketing va elektron tijorat yo'nalishlarida kuzatiladi, chunki ushbu vositalar mijozlar oqimi va savdo kanallariga bevosita ta'sir qiladi;
- raqamlashtirish darajasi oshishi bilan korxonada barqarorligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi kuchayadi;
- kichik biznesda raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich, aniq strategiya va iqtisodiy samaradorlik indikatorlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida kichik biznes subyektlari uchun raqamli savodxonlikni oshirish dasturlarini kengaytirish, davlat tomonidan IT infratuzilma va raqamli xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish, elektron tijorat platformalariga ulanishni yengillashtirish, kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash hamda data analytics va avtomatlashtirish vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish taklif etiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda sun'iy intellekt, Big Data va blockchain texnologiyalarining kichik biznes samaradorligiga ta'sirini chuqurroq o'rganish, tarmoqlar kesimida empirik baholash hamda korxonalar miqyosida ekonometrik model asosida natijalarni tekshirish

maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur ish natijalari kichik biznes subyektlari, iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilar hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvaliyev, Sh. (2023). Elektron tijoratning kichik biznes rivojlanishiga ta'siri. *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, 5(1), 22–30.
2. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital business strategy: Toward a next generation of insights. *MIS Quarterly*, 37(2), 471–482.
3. Deloitte. (2022). Connecting small businesses in the digital economy. *Deloitte Insights*.
4. Eller, R., Alford, P., Kallmünzer, A., & Peters, M. (2020). Antecedents, consequences, and challenges of SME digitalization. *Journal of Business Research*, 112, 119–127. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2020.03.001>
5. Karimov, N. (2022). Kichik biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 4(1), 55–63.
6. McKinsey & Company. (2020). The next normal: The recovery will be digital. McKinsey Global Institute.
7. Mirzayev, A. (2021). Tadbirkorlik faoliyatida raqamli marketingdan foydalanish samaradorligi. *Moliya va bank ishi jurnali*, 3(2), 41–48.
8. OECD. (2021). The digital economy and SMEs: Global outlook. OECD Publishing.
9. OECD. (2022). Digital transformation of SMEs: Policy frameworks and implementation. OECD Publishing.
10. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. (2022). Raqamli transformatsiya bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2023). Raqamli iqtisodiyot rivojlanish hisobotlari. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari. Toshkent.
13. Rogers, D. L. (2016). The digital transformation playbook: Rethink your business for the digital age. Columbia University Press.
14. Sodiqov, D. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes samaradorligi. *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 6(3), 33–39.
15. Schwab, K. (2016). The fourth industrial revolution. World Economic Forum.
16. Tursunov, B. (2022). Kichik biznesda axborot texnologiyalarini joriy etish muammolari. *Biznes-Expert jurnali*, 2(4), 67–73.
17. UNCTAD. (2021). Digital economy report 2021: Cross-border data flows and development. United Nations.
18. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. *Journal of Strategic Information Systems*, 28(2), 118–144.

19. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. *Journal of Business Research*, 122, 889–901.
20. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). *Leading digital: Turning technology into business transformation*. Harvard Business Review Press.
21. World Bank. (2023). *Digital development in Uzbekistan: SME transformation report*. World Bank Group.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

